



UDK:81.80.82.

Dilshodjon TO'YMURODOV,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: d.d.toymurodov@buxdu.uz

BuxDU professori B.Jo'rayeva taqrizi asosida

ANALYSIS OF ONOMASTIC UNITS IN GULKHANI'S "ZARBULMASAL"

Annotation

The article analyzes the uniqueness of the onomastic units in Muhammad Sharif Gulkhani's work "Zarbulmasal", that is, their poetic meaning.

Key words: Poetonym, root meaning, onomastics units, proverb, oikonym, toponym, anthroponym.

АНАЛИЗ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В «ЗАРБУЛМАСАЛЕ» ГЮЛЬХАНИ

Аннотация

В статье анализируется своеобразие ономастических единиц в произведении Мухаммада Шарифа Гюльхани «Зарбулмасал», то есть их поэтический смысл.

Ключевые слова: Поэтоним, корневое значение, единицы ономастики, пословица, ойконим, топоним, антропоним.

GULXANIYNING "ZARBULMASAL" ASARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLARNING TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi onomastik birliklarning o'ziga xosligi ya'ni ularning poetik ma'no ifodalashi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Poetonim, tag ma'no, onomastika birliklar, maqol, oykonim, toponim, antroponim.

Kirish. XVIII - XIX asrning yirik namoyandalardan biri Muhammad Sharif Gulxaniy o'ziga xos asarlari orqali adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ijodkorlardan biridir. U o'zining axloqiy qarashlarini oddiy yo'l bilan emas, balki xalqimizning o'lmas merosi bo'lmish maqollar orqali ifodalashga harakat qildi va bu uning "Zarbulmasal" asarida o'z ifodasini topdi. "Zarbulmasal" asarida maqollar, matallardan tashqari onomastik birliklar: toponim, antroponim, oykonimlardan ham o'ziga xos, ya'ni poetik ma'noni tashish maqsadida foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nomlar xalqning ma'naviy merosini o'zida mujassamlashtiruvchi vositalardan biri sifatida uning ma'naviyati, madaniyati va tarixidan darak berib turadi. Shu bilan birga, nomlar asrlardan-asrlarga o'tib, shu tilning lisoniy tamoyillarini saqlab keladi.

Gulxaniy o'zining "Zarbulmasal" asarida poetik ma'noni tashuvchi nomlardan, ya'ni poetonimlardan mohirona foydalangan. Poetonimlar ma'lum bir xalqning qarashlarini ifodalash uchun vosita bo'lar ekan, tilshunoslikda buni o'rganish ehtiyoji paydo bo'ladi. Poetonimlarni o'rganishga bo'lgan sa'y-harakatlarni o'zbek tilshunosligida filologiya fanlari doktori Durdona Xudoyberganova boshlab berdi.

Olimaning "O'zbek she'riyatida poetonimlar lug'ati" kitobi bu izlanishlarning natijasi o'laroq o'zbek lug'atchiligida yangi sahifani ochdi.

D.Xudoyberganovanning fikricha, "Nomlar har bir xalqning badiiy adabiyotida muhim o'rin tutuvchi birliklar sifatida mazkur adabiyotga xos bo'lgan ijodiy an'analar, uning badiiyatiga daxldor jihatlar, yozuvchi uslubini belgilovchi omillar xususida ham ma'lumot beradi".

Tadqiqot metodologiyasi. bO'zbek nasriy adabiyotida esa nomlarning poetik ma'no tashishi hali o'rganilmaganligini inobatga olga holda biz quyida Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida toponimik (Movarounnahr, Buxoro va boshqalar), oykonimik (Bekobod, Urgut va boshqalar), antroponimik (mang'it va boshqalar) birliklarni tahlil qilamiz.

Tahlil va natijalar.

BADAXSHON – Amudaryoning yuqori oqimida, daryoning har ikkala sohilida joylashgan tog'li o'lka.U Pomir tog'larining bir qismi bo'lib, ikki o'lkadan iborat: 1. G'arbiy Pomirni ishg'ol qilgan Tog'li-Badaxshon muxtor viloyati (Tojikiston Respublikasi); 2. Shimoliy-sharqiy Afg'onistonni

ishg'ol qilgan katta o'lka. Badaxshon qadimdan savdo markazi bo'lib, chetga la'l, yoqut va zumrad chiqargan. La'li badaxshon deb yuritganlar. Badaxshon toponim shundan olingan bo'lishi ehtimol (O'ME. – T., 2016. - B. 9-10).

Navozanda aydi: "Badaxshonki, ma'daniydur va Yamanki, aqiqni konidur-ikisini o'z manzilida qadru qiymati bo'lmas" [-B. 35]

Berilgan misolda ko'rinib turibdiki, Badaxshon toponimi quyidagi poetik ma'noni beryapti: Badaxshonda qimmat baho ma'danlar bo'lsada xalqi xor-u zor, yoki har qanday qimmat baho buyum insonga baxt keltirmasligi mumkin.

BEKOBOD – Toshkent viloyatidagi shahar (1954 yildan). Toshkentdan 189 km janubda, Dalvarzin cho'lining janubiy sharqida. Tojikiston Respublikasi

chegarasi yaqinida. Sirdaryoning har ikkala sohilida, shimoliy – sharq va janubiy –sharqdan tog' tizmalari bilan o'ralgan (O'ME. – T., 2016. -B. 201-202).

"Ey ma'shari tuyurlar, anglag'uchi bo'lunglar; man mahr solay: Avval –Urgut, soniyan - Yangiqo'rg'on, Rabot, Bekobot..." [-B. 57]

Muallif Bekobot toponimini keltirish bilan, ushbu hududlarning o'sha davrda xarobazorga aylanganligidan, aholining qashshoqlikda yashashidan ma'lumot beradi. Chunki asarda keltirilgan boyo'g'lilar xarobazorlarda yashashadi.

BUXORO – Buxoro viloyatidagi shahar. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida. Buxoro – Sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biri (O'ME. –T., 2016. –B. 752-756).

Agar mani sandek davlatlik orqam bo'lg'anda edi, Boyo'g'lini og'ziga surnay, qo'yniga karnay berib Buxoroni bir tumanidan ming chordevorni topib berib muhim xayr ishin bitkarur erdim [-B. 51]

"Zarbulmasal" asaridagi qahramon Buxoro toponimini keltirish orqali XIII-XIX asrlarda Buxoro hududida ro'y bergan turli xil siyosiy nizolar tufayli xalqning qashshoqlikka duchor bo'lganligini tag ma'no qilib bayon etadi

HORUN ar-RASHID (763 yoxud 766-809.24.3) – abbosiylar sulolasidan bo'lgan xalifa (786-yildan). Horun ar-Rashid davrida mamlakatda hunarmandchilik, savdo va madaniyat (asosan, adabiyot) ancha rivojlangan. Lekin shu bilan birga

davlatning tanazzulga yuz tutganligining belgilari ham namoyon bo'la boshlagan (Daylam, Suriya va boshqa viloyatlardagi qo'zg'olonlar). Horun ar-Rashid Vizantiya bilan o'tmishdoshlari boshlagan urushni davom ettirgan. Movarounnahrda Rofi ibn Lays qo'zg'olonini bostirish uchun harbiy safarga chiqqanda vafot etgan (O'ME. –T., 2016. -H. 202).

Ko'rqush aydi: "Hazrati Muso payg'ambar edilarmu yo hazrati Horun?" Hudhud aydi: "Hazrati Muso payg'ambar edilar, Hazati Horun xalifa edilar": [-H.16]

Ko'rqush o'zini nodonlikga urib muammodan qochishga urinsa Yapaloqqush o'z donoligi-yu aqilliligi bilan uni lol qoldiradi.

IBROHIM – Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri, o'zidan keyin o'tgan barcha payg'ambarlarning bobokaloni, arablar va yahudiylarning umumiy ajdodi. Allohning chin do'sti (xalilullox.), imom, siddiq va hanif deb ta'riflanadi (O'ME. –T., 2016.- I. 26).

Va yana aytar ediki, "Andog' ham ermas". "O'n besh yoshimda hazrati Ibrohim alayhissalomni kofirlar manjinaqqa solib o'tga otarda bir poyasinda hozir erdim", der erdi [-I. 32]

Misolda Ibrohim alayhissalom antroponimi quyidagi ma'noni tashimoda:

"Zabulmasal" asaridagi qahramon o'zini buyuk shaxs, dono va qudratli ekanligini ko'rsatib qo'ymoqchi. Har qanday buyuk insonning yaqinida yurgan odamlar yaxshilik tarafdori bo'lmasli yozuvchi tomonidan kinoya qilib keltirilmoqda.

IMOMI A'ZAM – Abu Hanifa No'mon ibn Sobit al-Ko'fiy (699, Ko'fa – 767, Bag'dod) – hanafiylik mazhabi asoschisi. Ilohiyotchi, faqih, muhaddis. «Abu Hanifa» uning kunyasi, «Imomi A'zam» («Ulug' imom») ulug'ligining e'tirofi o'laroq berilgan unvon. Asli fors bo'lib, o'ziga to'q, zodagon oiladan. Yoshlikdan Qur'onni yod oldi. Kalom ilmi va mantiqni o'rgandi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida musulmonlar Imomi A'zam mazhabi qoidalarida ibodat qilib kelmoqdalar (O'ME. –T., 2016. –I. 145–146).

Duo va solom xulofai arbaa va hama ashoblarig'akim, do'stdorimiz tururlar va bamazhabi hazrati Imom a'zam ko'fi so'fi rahmatillohi alayh va yana ushbu majmui tuyurlarki, shul majlisda hoziru nozir tururlar [-I.58]

"Zarbulmasal" asarini majoziy ma'noda qushlarning insonlar kabi so'zlashlarini inobatga olib, xalqimizdagi bir naqlni yodga olaylik: "Ma'lum bir hududdagi insonlar bilan muomala kirishadigan bo'lsang, ularning tilida gaplash", ya'ni asar qahramoni majlis ahliga qarata islom dinining buyuk ulamolarini tilga olib o'zining ham shu din, shu mashabdan ekanligini ta'kidlaydi va yig'ilish ishtirokchilari orasida o'zini hurmatga loyiq ulug' inson qilib ko'rsatadi.

JOMIY – (taxallusi; asl ism-sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad) – fors-tojik shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili (O'ME.–T., 2016. -J.185).

Va yana ash'or mazmunig'a Mavlono Abdurahmon Jomiy alayhirrahma aytmishlarki:

Qosidi shoh xushmand sazar, To – z jomi xayoli kaj napazad [-J.17]

Gulxaniy yuqoridagi parchada shunday demoqchi: "Har kim qo'ldan keladigan aqli yetadigan ishni qilsa xayrli bo'ladi. Agar inson kughi yetmaydigan ishga urinsa ko'pchilik orasida o'z obro'sini to'kkani qoladi".

MANG'IT, mang'itlar – yirik qabilalardan biri. Mang'itlar XIII asrda Dashti Qipchoqda, katta bir qismi esa Volga va Ural daryolari oralig'ida yashashgan. XVI asrda hozirgi O'zbekiston hududiga ko'chib kelganlar. Mang'itlar Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. 1753–1920-yillargacha Buxoroni idora qilib kelgan xonlar Mang'itlarning to'q urug'idan bo'lgan, shu sababli xonlikda katta imtiyozlarga ega edilar. Qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan o'zbeklarning ta'siri ostida Mang'itlarning bir qismi asta-sekin o'troqlashib borgan (O'ME. –T., 2016. -M. 193).

Malikshobhang noma mazmunini anglab zamone tavaqquf qilib aydikim, "El yamoni mang'it, qush yamoni ang'it" degandek va yo onki, "olmag'on nimarsani bozorg'a yuborgan kishiga o'xshab, sani yubormasa bo'lmasmudi!" [-M.29]

"Zarbulmasal" asaridagi qahramon mang'it so'zini keltirish orqali O'rta Osiyoda katta siyosiy ta'sirga ega bo'lgan

mang'itlarning yomon kirdikorlarini tag ma'no sifatida ochib bermoqchi bo'ladi.

MUSO – Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri. Ba'zi rivoyatlarda Muso «Bani Isroil» qabilasida tug'ilishi, Misr podshohi (fir'avn)ning taxtdan ketishiga sababchi bo'lishi, taqdir taqozosi bilan Misrdan qochib ketishi va arab qiziga uylanganligi aytiladi. Xudo Musoni Isroil qabilasini Fir'avn zulmidan ozod qilib, Misrdan olib chiqib ketishga da'vat qiladi. Unga Sino tog'ida «10 vasiyat» tosh lavhasini taqdim etadi. Unga Tavrot nozil etilgan. Musoni yahudiylar, musulmonlar, xristianlar payg'ambar deb hisoblaydilar (O'ME. –T., 2016. -M. 860).

Hazrati Musoni tillarining kalolati bor ekankim, ollohi taolo vahiyini anga nozil qildi, donolik aning sha'nidadur [-M. 17]

Yuqoridagi misolda Muso nomini keltirish orqali u zotning naqadar buyuk ekanligi shu bilan birga asar qahramoni payg'ambarlar nomi bilan boshlangan har qanday ish xayrli yakunlanishi haqida fikr yuritadi.

SULAYMON – Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri, hukmdor. Millodan avvalgi 965-928 yillarda Isroil Iudeya podshohi bo'lgan. Dovudning o'g'li. Sharq va G'arbda bir qancha mamlakatlarni zabt etib, jahongir bo'ldi. Sulaymon yahudiy va xristian diniy adabiyotlarida Solomon nomi bilan ma'lum (O'ME. –T., 2016. -S. 699).

Anda Ko'rqush aydi: "Ey Hudhud, san hazrati Sulaymon alayhissalom birla munozara qilg'on kishidursan [-S.16]

Sulaymon payg'ambar mifoantroponimini keltirishdan maqsad, Ko'rqush Yapaloqqushni bilimsizlikda ayblab uni yerga urmoqchi.

SO'FI OLLOYOR (1644, Kattaqo'rg'on bekligi Minglar qishlog'i – 1724, Denov) – tariqat arbobi va mutasavvuf shoir. O'z davrining barcha asosiy ilmlarini egallagan, arab va fors tillarini o'rgangan. Buxoro xoni Abdulazizxon tomonidan boj mahkamasiga to'ra etib tayinlangan. Darveshona fe'l, shoirona ko'ngil sohibi bo'lgan So'fi Olloyor bu lavozimdan tezda iste'fo berib, o'z davrining mashhur shayxi Navro'zga shogird tushgan, tariqat talablarini bajarib, shayxlik martabasiga ko'tarilgan, valiulloh (karomat sohibi) bo'lib yetishgan. Turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarni targ'ib qilishdan iborat (O'ME. Toshkent, 2016. S. 835).

Andoqqim, Eshon So'fi Olloyor so'zlaridurki, "Tal osha kelgan o'lturmas talosha" [-S.21]

Asar qahromoni So'fi Olloyor antroponimini keltirish bilan atrofdegilar orasida o'zini dono, fozil, oqil sifatida ko'rsatadi.

URGUT – Samarkand viloyati Urgut tumanidagi shahar (1973-yildan), tuman markazi. Zarafshon tog' tizmasining g'arbiy davomi hisoblangan Chaqilikalon tog'ining etagida, Samarkand shahridan 35 km narida, viloyatning janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Shahar o'rtasidan Urgutsoy oqib o'tadi. «Urgut» – O'rkent so'zining kengroq o'zgargan yasamasi, o'r – balandlik; kent – shahar, ya'ni balandlikdagi shahar ma'nosini anglatadi deguvchilar ham bor (O'ME. –T., 2016. -U. 145).

"Ey ma'shari tuyurlar, anglag'uchi bo'lunglar, man mahr solay: Avval – Urgut [-U. 56]

Muallif yuqorida Urgut toponimini keltirish orqali o'sha davrda bu hududning rivojlanishdan ortda qolgan aholining qashshoqlik tufayli katta shaharlarga o'z uy-joylarini tashlab ketishlari va bu hududlarda kata-katta xarobazorlar paydo bo'lishini kinoya bilan hikoya qiladi.

XAYROBODTEPA – shahar xarobasi (millodan avvalgi 1-asr-millodan avvalgi 3-4-asrlar) Termiz shahar. (Surxondaryo viloyati)dan 30 km shimolda, Angor qishlog'i yaqinida joylashgan. Tarhi to'rtburchak (150x100 m), minoralari bo'lgan mudofaa devori va xandaq bilan o'ralgan. Xayrobodtepaning janubiy-sharqiy qismida mustahkamlangan ark bo'lib, uning atrofiga ham xandaq qazilgan. Xayrobodtepa qadimda devor bilan teng 2 qismga ajratilgan. Devorning eni 8 m, saqlangan balandligi 10 m. Xayrobodtepaning bir qismida ilk va rivojlangan o'rta asrlarda ham hayot davom etgan. Arxeologik qazishmalar natijasida sopol idishlar, terrakota haykalchalar, baqtriy yozuvi bitilgan xumlar, Sapadbiz, Neron, Kadfiz II, Kanishka, Vasudeva tangalari chiqqan (O'ME. –T., 2016. –X. 11).

Ammo vayrona ajnosidin Xayrobod bizga muvofiq tushmadi-ku [-X. 57]

Asar qahramoni Xayrabodtepa toponimini keltirishdan maqsad shahar atrofidagi boshqa hududlar xarobaga aylansa ham feodal boylar yashaydigan bu shahar har doim gullab yashnashini kinoya orqali ifodalaydi.

YASSAVIY, Xoja Ahmad Yassaviy (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan XI asrning 2-yarmi 1166-yil) - tasavvufning mashhur namoyondalaridan biridir. Shoirning otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Yassaviy tug'ulgach, ko'p o'tmay onasi vafot etadi. 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg'ul bo'ladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga ko'chib borgach, birinchi ustoz Arslonbob bilan uchrashadi va undan tahsil oladi. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g'oyalari omma ko'ngliga chuqur singdirish maqsadida she'riyatdan ham foydalangan (O'ME. -T., 2016. -Y. 99).

Boz aytur erdiki, "andoq ham ermas". "Yigirma besh yoshimda hazrati sultoni orifin Xoja Ahmad Yassaviy xonaqohlari obod qilurda loy tefib, xisht bergan man erdim", deb aytur erdi [-Y. 33]

Yozuvchi keltirgan misolda asar qahramonining naqadar befarosat va lofchiligini buyuk avliyo Yassaviy nomini keltirish orqali izohlaydi.

ZOMIN TUMANI – Jizzax viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Jizzax tumani

Xulosa va takliflar.

Poetik ma'noda kelgan onomastik birliklar jadvali

1	Toponim	Antroponim	Mifoantroponim	Etonim	Onomastik birliklar
2	37,5%	31,25%	25%	6,25%	100%

"Zarbulmasal" asaridan keltirilgan parchalar tarkibidagi onomastik birliklar tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik tarkibidagi noyob hodisadir. Shu bilan birga yuqoridagi jadvajda ko'rinib turibdiki, Muhammad Sharif Gulxaniy turli onomastik birliklar orasidan toponimlarni ko'proq ishlatadi. Buning sababi bizningcha yozuvchi hayoti davomida turli janglarda sipohiylik qilganidan kelib chiqqan holda Movorounnahrda ko'plab shahar va qishloqlarning xarobazorlarga aylanganligini ko'rgani, xonlar va amirlarning turli bo'lar-bo'lmas siyosiy nizolari tufayli

bilan birlashtirilgan, 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan). Aholisi, asosan, o'zbeklar. Shuningdek, qirg'iz, rus, tatar, tojik va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Tuman hududidan Buyuk ipak yo'li o'tgan. Zomin, Peshag'ar kabi tarixiy joylar, ko'hna qal'a qoldiqlari, qadimiy qabristonlar saklangan (O'ME. -T., 2016. -Z. 124).

Said Muhammad Umarxon buzgan Urgut, Sho'rko'l, Zomin bulardin shahri Kayqubod rashk olib adam sari yuzlandi. [-Z.51]

Yuqoridagi misolda yozuvchi Zomin toponimini keltirish orqali kitobxonga xonliklar davrida boshqa hududlar qatori Zominning ham xarobaga aylanib o'sha yerdagi xalqning qashshoqlik va xor-u zorlikda yashayotganligini bildirmoqchi.

SHAYTON (arab.) – islom, xristianlik va buddaviylik dinlarining ta'limotlariga ko'ra, yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig'i, dunyodagi yovuzliklarning aybdori, odamlarni gunohga yetaklovchi kuch. Qur'onda Shayton so'zining sinonimi sifatida Iblis iborasi ham qo'llanilgan. Shayton so'zi firibgar, ayyor odamlarga nisbatan ham ishlatiladi (O'ME. -T., 2016. -SH. 9).

Va yana aytmishlarki, "Shaytonda hunar ne - xonaqoh tangast" [-Sh.13]

Berilgan misolni quyidagicha izohlash mumkin: Firibgar – kasbi, hunari bo'lmagan insonlar uchun har bir joy tor o'ng'aysiz tuyiladi; lekin bunday shaytoniy sifatga ega bo'lgan insonlar jamiyatda o'z o'rnini topolmasligi haqida fikr yuritilmoqda.

xalqning ijtimoiy-iqtidiy ahvoli og'irlashgani ijodkor Gulxaniyning befarq qoldirmadi va Qo'qon xonlarining taziqiga uchrashidan qo'rqib "Zarbulmasal" asariga turli qushlarni qahramon qilib oldi va ular tilidan xalq ichki kechinmalarini so'zlatadi.

Onomastik birliklar o'z qatlamlari tarkibida poetik ma'noni, kitobxonni diqqatini jalb etish maqsadida uzundan-uzoq yozish emas, balki toponim, etnonim, antroponimlarni keltirish orqali ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Qayumov P. Qo'qon adabiy muhuti.-Toshkent, 1961, 156-bet.
2. Мухаммад Шари́ф Гулханий. Зарбулмасал.-Ташкент, 1974. (17,27,29,32,35).
3. ЎМЭ. Тошкент, 2016. (9-10,26-27,80,185,193,478,860).
4. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
5. Маллаев Н. Эски ўзбек адабий тили. // Илмий асарлар, V китоб, Ўзбек адабиёти. –Тошкент: 1962. –Б. 74-80.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет, 2000.
7. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Нега шундай деймиз. –Тошкент, 1988. -352 б.
8. Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. –Тошкент, 1999.
9. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
10. Ўзбек халқ мақоллари. 1-жилд. А- О. –Тошкент: Фан, 1987. -368 б.